



**JINOYATDA QASD VA SUIQASD TUSHUNCHASI QASDDAN ODAM
O‘LDIRISH VA O‘LDIRISHGA SUIQASD JINOYATLARI O‘ZBEKISTON
RESPUBLIKASIDA JINOYATCHILIKGA QARSHI OLIB
BORILAYOTGAN HUQUQIY ISLOHOTLAR**

A.A.Amirov

*Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy
universiteti ijtimoiy fanlar kafedrası o‘qituvchisi*

A.B.Soatov

*Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
Yurisprudensiya fakulteti 2-bosqich talabsi*

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada jinoyatda qasd va suiqasd tushunchalarining nazariy-huquqiy mazmuni tahlil qilinadi. Xususan, qasddan odam o‘ldirish hamda o‘ldirishga suiqasd jinoyatlarining subyektiv tomonini tashkil etuvchi ayb shakllari, ularning o‘ziga xos belgilari va huquqiy oqibatlari yoritib beriladi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida jinoyat qonunchiligini takomillashtirishga qaratilgan islohotlar doirasida mazkur jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish masalalari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Maqola natijalari jinoyat huquqi sohasida tahsil olayotgan talabalar, tadqiqotchilar hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: Jinoyatda qasd, suiqasd, qasddan odam o‘ldirish, o‘ldirishga suiqasd, ayb shakli, jinoyat huquqi, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi.

Kirish

Inson hayoti oliy ijtimoiy qadriyat hisoblanib, uni huquqiy jihatdan himoya qilish har bir demokratik davlatning asosiy vazifalaridan biridir. O‘zbekiston Respublikasida inson hayotiga qarshi qaratilgan jinoyatlar uchun javobgarlik



masalalari jinoyat qonunchiligida alohida o‘rin egallaydi. Ayniqsa, qasddan odam o‘ldirish va o‘ldirishga suiqaqd jinoyatlari o‘zining yuqori ijtimoiy xavfliligi bilan ajralib turadi. Mazkur jinoyatlarni to‘g‘ri huquqiy baholash, ularni boshqa jinoyatlardan farqlashda jinoyatda qasd va suiqaqd tushunchalarining mazmunini chuqur anglash muhim ahamiyatga ega. Shu sababli ushbu maqolada mazkur tushunchalar ilmiy asosda tahlil qilinadi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda tinchlik va osoyishtalikni ta‘minlashning mutlaqo yangi mexanizmlarini joriy etish, huquqbuzarlikni sodir etishga sabab bo‘layotgan ijtimoiy-maishiy muammolarni ijtimoiy profilaktika choralari tizimi orqali hal etish hamda aholida shaxsiy xavfsizlik hissini shakllantirish borasida samarali chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga mahallalarda xavfsiz muhitni yaratishning tashkiliy-profilaktik asoslarini zamon talablariga moslashtirish, sodir etiladigan qonunbuzilishlarning asl omillarini o‘z vaqtida aniqlash va kompleks chora-tadbirlar bilan manzilli bartaraf etish orqali jinoyatchilikning barvaqt oldini olish tizimining samaradorligini yanada oshirish dolzarb vazifa sifatida namoyon bo‘lmoqda.¹

O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan huquqiy islohotlar doirasida jinoyat qonunchiligini takomillashtirish, shaxs huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish hamda jinoyatlarga nisbatan adolatli javobgarlikni ta‘minlash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, inson hayotiga qarshi qaratilgan jinoyatlar qasddan odam o‘ldirish va o‘ldirishga suiqaqd jinoyatlari o‘zining yuqori ijtimoiy xavfliligi bilan ajralib turadi. Ushbu jinoyatlarni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilishda jinoyatda qasd va suiqaqd tushunchalarini chuqur anglash muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Jinoyatda qasd tushunchasi O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining **21-moddasi** bilan bevosita tartibga solinadi. Mazkur moddaga ko‘ra, jinoyat tamom bo‘lgan payti ijtimoiy xavfli qilmish bajarilgan vaqt deb hisoblangan hollarda, agar

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2025-yilda Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 3-yanvardagi PQ-1-sonli qarori



shaxs o'z qilmishining ijtimoiy xavflilik xususiyatini anglagan va bunday qilmishni sodir etishni istagan bo'lsa, jinoyat **qasddan sodir etilgan** deb topiladi.²

Shuningdek, Jinoyat kodeksida jinoyat tamom bo'lgan payti ijtimoiy xavfli oqibat yuz bergan vaqt deb e'tirof etilgan qilmishlar **to'g'ri yoki egri qasd** bilan sodir etilishi mumkinligi belgilangan. Ushbu norma jinoyatning subyektiv tomonini aniqlashda muhim huquqiy mezon hisoblanadi. Jinoyatda qasd shaxsning o'z xatti-harakatiga va uning oqibatlariga bo'lgan ongli ruhiy munosabatini ifodalaydi. Qasd mavjud bo'lganda shaxs o'z harakatining ijtimoiy xavfli ekanligini anglaydi, oqibatlarini oldindan ko'ra biladi va ularning yuz berishini istaydi yoki bunga ongli ravishda yo'l qo'yadi. Jinoyat huquqi nazariyasida qasd ikki shaklga bo'linadi: to'g'ridan-to'g'ri qasd va egri (bilvosita) qasd. Ushbu farqlash qasddan odam o'ldirish jinoyatini kvalifikatsiya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Jinoyatda qasd shaxsning o'z xatti-harakatiga va uning oqibatlariga bo'lgan ongli ruhiy munosabatini ifodalaydi. Qasd mavjud bo'lganda shaxs o'z harakatining ijtimoiy xavfli ekanligini anglaydi, oqibatlarini oldindan ko'ra biladi va ularning yuz berishini istaydi yoki bunga ongli ravishda yo'l qo'yadi.

Jinoyat huquqi nazariyasida qasd ikki shaklga bo'linadi: to'g'ridan-to'g'ri qasd va egri (bilvosita) qasd. Ushbu farqlash qasddan odam o'ldirish jinoyatini kvalifikatsiya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.³

Suiqasd jinoyat sodir etishga qaratilgan qasdli harakatlarning tugallanmagan shakli hisoblanadi. Bunda shaxs jinoyatni oxiriga yetkazish niyatida bo'ladi, ammo jinoyat shaxs irodasiga bog'liq bo'lmagan holatlar sababli yakuniga yetmaydi. Suiqasd mavjud bo'lishi uchun jinoyatni bevosita sodir etishga qaratilgan harakatlar boshlangan bo'lishi zarur. Faqat tayyorgarlik harakatlari suiqasd sifatida baholanmaydi.

² O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi

³ Jinoyat huquqi umumiy qism X.R.Ochilov kitobidan



Qasddan odam o'ldirish jinoyati faqat qasd bilan sodir etiladi. Ushbu jinoyatda aybning mavjudligi shaxsning harakatlari, ishlatilgan vositalar, zarbalar soni va ularning hayot uchun xavflilik darajasi orqali aniqlanadi. Sud-amaliyotida qasddan odam o'ldirishni ehtiyotsizlik oqibatida o'limga sabab bo'lish jinoyatidan farqlashda aynan subyektiv tomon hal qiluvchi mezon hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining **25-moddasi** jinoyatga tayyorgarlik ko'rish va jinoyat sodir etishga suiqasd tushunchalarini huquqiy jihatdan aniq belgilab beradi. Mazkur modda jinoyat sodir etish bosqichlarini farqlash va ularni to'g'ri kvalifikatsiya qilishda muhim normativ asos bo'lib xizmat qiladi. JK 25-moddasiga ko'ra, shaxsning qasddan sodir etiladigan jinoyatni amalga oshirish yoki uni yashirish uchun shart-sharoit yaratishga qaratilgan harakatlari, agar jinoyat shaxsga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra hali boshlanmasdan to'xtatilgan bo'lsa, **jinoyatga tayyorgarlik ko'rish** deb topiladi. Bunda jinoyat obyektiga bevosita tajovuz hali boshlanmagan bo'ladi. Agar qasddan sodir etiladigan jinoyat bevosita boshlanib, biroq shaxsga bog'liq bo'lmagan holatlar sababli oxiriga yetkazilmagan bo'lsa, bunday holat **jinoyat sodir etishga suiqasd** sifatida baholanadi. Suiqasd jinoyat faoliyatining eng xavfli bosqichlaridan biri bo'lib, bunda jinoyatchining niyati to'liq shakllangan va amalga oshirishga qaratilgan bo'ladi.

Mazkur normalarning amaliy talqini O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2004-yil 24-sentabrdagi 13-sonli "Qasddan odam o'ldirishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarorida batafsil yoritilgan. Ushbu qarorda ta'kidlanishicha, **qasddan odam o'ldirishga suiqasd faqat to'g'ridan-to'g'ri qasd bilan sodir etilishi mumkin.**⁴

Plenum qaroriga muvofiq, o'ldirishga suiqasd holatlarida aybdor shaxs:

- o'z qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglagan bo'ladi;

⁴ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2004-yil 24-sentabrdagi 13-sonli "Qasddan odam o'ldirishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori



- jabrlanuvchining o‘limi yuz berishini oldindan biladi;
- aynan shu natijani — jabrlanuvchini hayotdan mahrum qilishni istaydi.

Biroq o‘lim aybdorga bog‘liq bo‘lmagan holatlar, xususan jabrlanuvchining faol qarshiligi, uchinchi shaxslarning aralashuvi yoki o‘z vaqtida ko‘rsatilgan tibbiy yordam tufayli yuz bermaydi. Sud-amaliyotida qasddan odam o‘ldirishga suiqasdni jabrlanuvchining o‘limiga sabab bo‘lgan qasddan badanga og‘ir shikast yetkazish jinoyatidan farqlash muhim ahamiyatga ega. Bunda hal qiluvchi mezon **aybdorning qasdi nimaga qaratilganligi** hisoblanadi.


Aybdorning qasdi jabrlanuvchini hayotdan mahrum qilishga qaratilgan bo‘lsa, biroq o‘lim yuz bermagan bo‘lsa, qilmish JK 25-moddasi va JK 97-moddasining tegishli qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi. Agar aybdorning qasdi faqat tan jarohati yetkazishga qaratilgan bo‘lib, o‘lim ehtiyotsizlik oqibatida sodir bo‘lgan bo‘lsa, jinoyat tarkibi boshqacha huquqiy baholanadi.

Shunday qilib, JK 25-moddasi va Oliy sud Plenumi qarorlari qasddan odam o‘ldirishga suiqasd jinoyatini to‘g‘ri baholash, jinoyat bosqichlarini aniq ajratish hamda adolatli jazo tayinlashda muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi. O‘ldirishga suiqasd qasddan odam o‘ldirish jinoyatining tugallanmagan shakli bo‘lib, bunda jabrlanuvchining o‘limi yuz bermaydi. Biroq jinoyatchining niyati aynan hayotdan mahrum qilishga qaratilgan bo‘ladi. Amaliyotda bunday holatlar ko‘pincha jabrlanuvchiga o‘limga olib kelishi mumkin bo‘lgan jarohatlar yetkazilgan, ammo tibbiy yordam yoki boshqa tashqi omillar sababli o‘lim sodir bo‘lmagan vaziyatlarda uchraydi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida jinoyat qonunchiligini liberallashtirish va insonparvarlashtirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirildi. Ushbu islohotlar doirasida jinoyatlarni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilish, jazolarni individuallashtirish va sudlarning mustaqilligini ta‘minlash masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Qasddan odam o‘ldirish va o‘ldirishga suiqasd jinoyatlarini



ko‘rib chiqishda sudlar tomonidan shaxsning niyati, ruhiy holati va sodir etilgan harakatlarning real oqibatlari chuqur tahlil qilinmoqda.



Qasddan odam o‘ldirish va o‘ldirishga suiqasd qilish jinoyati sodir etganlar soni 2010-2024 yillar kesimida⁵

Rasmiy statistik ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida qasddan odam o‘ldirish va o‘ldirishga suiqasd qilish jinoyatlari soni 2010–2024-yillar davomida barqaror kamayish tendensiyasini namoyon etmoqda. Xususan, 2010-yilda mazkur turdagi jinoyatlar soni 868 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 273 taga tushgan. Bu esa qariyb 3 barobarga yaqin pasayishni anglatadi. 2010–2016-yillar oralig‘ida jinoyatlar sonida nisbatan tebranishlar kuzatilgan bo‘lib, ayrim yillarda (2012 va 2015-yillarda) ko‘rsatkichlarning vaqtincha oshgani qayd etilgan. Biroq 2017-yildan boshlab jinoyatlar sonining izchil ravishda kamayib borishi kuzatiladi. Ayniqsa, 2018–2019-yillarda keskin pasayish holati qayd etilib, 2019-yilda mazkur jinoyatlar soni 351 taga tushgan. 2020–2021-yillarda ayrim ijtimoiy va global omillar ta’sirida jinoyatlar sonida nisbatan oshish kuzatilgan bo‘lsa-da, 2022–2024-yillarda yana pasayish trendi tiklangan. 2024-yilda

⁵ Rasmiy statistika ma’lumoti stat.uz



qayd etilgan 273 ta holat so‘nggi o‘n besh yil ichidagi eng past ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Mazkur ijobiy dinamika O‘zbekiston Respublikasida jinoyatchilikka qarshi kurashish, ayniqsa og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlarning barvaqt oldini olish borasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli huquqiy va institutsional islohotlar samarasi ekanligini ko‘rsatadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-son Farmoni hamda 2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini oshirishga qaratilgan qarorlari ushbu jarayonda muhim o‘rin tutmoqda.

Mazkur ijobiy tendensiya doimiy ravishda davom ettirish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvardagi **“2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–1-son qarori** bilan bevosita uzviy bog‘liqdir. Ushbu qarorda jinoyatchilikning oldini olishda **mahalla institutining markaziy o‘rni**, huquqbuzarliklarning asl sabablarini aniqlash va ularni manzilli bartaraf etish masalalari ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Shunday qilib, statistik tahlil shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda olib borilayotgan tizimli islohotlar natijasida qasddan odam o‘ldirish va o‘ldirishga suiqasd qilish jinoyatlari barqaror ravishda qisqarib bormoqda, bu esa mamlakatda jamoat xavfsizligini ta‘minlash va inson hayotini oliy qadriyat sifatida himoya qilishga qaratilgan davlat siyosatining samaradorligini yaqqol namoyon etadi.

Xulosa

Olib borilgan ilmiy-huquqiy va statistik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston Respublikasida qasddan odam o‘ldirish va o‘ldirishga suiqasd qilish jinoyatlari so‘nggi yillarda barqaror kamayish tendensiyasiga ega bo‘lib bormoqda. 2010-yilda 868 ta bo‘lgan mazkur jinoyatlar sonining 2024-yilda 273 taga tushishi



davlat tomonidan jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida olib borilayotgan izchil va tizimli islohotlarning amaliy samarasi ekanligini tasdiqlaydi.

Mazkur jarayonda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan **inson hayoti, sha’ni va qadr-qimmati oliy ijtimoiy qadriyat** ekanligi haqidagi konstitutsiyaviy normalar muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Konstitutsiyada insonning yashash huquqi kafolatlangan bo‘lib, ushbu norma jinoyat huquqida inson hayotiga qarshi qaratilgan jinoyatlarni eng og‘ir ijtimoiy xavfli qilmishlar sifatida baholashga asos yaratadi.

Tadqiqot davomida Jinoyat kodeksining 21-moddasida belgilangan qasd tushunchasi, shuningdek, 25-moddada nazarda tutilgan suiqasd institutining mazmuni tahlil qilinib, ularning jinoyatni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilishdagi ahamiyati ochib berildi. Statistik ma’lumotlar esa 2017-yildan boshlab qasddan odam o‘ldirish jinoyatlarining keskin kamayganini ko‘rsatib, bu holat mahallalarda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishga qaratilgan yangi mexanizmlar joriy etilishi bilan uzviy bog‘liq ekanini tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, Konstitutsiya, Jinoyat kodeksi va Prezident qarorlari asosida olib borilayotgan huquqiy va institutsional islohotlar natijasida O‘zbekistonda inson hayotini muhofaza qilishga qaratilgan samarali tizim shakllanib, qasddan odam o‘ldirish va o‘ldirishga suiqasd jinoyatlari yildan yilga kamayib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.**
2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni.



5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2025-yilda Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 3-yanvardagi PQ-1-sonli qarori
6. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2004-yil 24-sentabrdagi 13-sonli “Qasddan odam o‘ldirishga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarori
7. Rustambayev M.X. Jinoyat huquqi. Maxsus qism. — Toshkent.
8. Axmedov B.A. Jinoyat huquqida qasd va ehtiyotsizlik masalalari.
9. LexUZ milliy huquqiy axborot tizimi materiallari.
10. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar organlarining rasmiy statistik ma’lumotlari.